

**AJDODLARGA MUNOSIB AVLOD BO'LAYLIK.**

*Xalniyazova Ra'no Quvonichboy qizi*

*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmayram.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy va madaniy merosning ahamiyati yoritilgan. Unda yosh avlodning ajdodlar izini davom ettirib, ularning mardlik, jasorat, va donishmandlik kabi fazilatlarini o'zida mujassam etishi kerakligi ta'kidlanadi. Asar yoshlarga ota-bobolarining ezgu ishlariga munosib bo'lish, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish orqali jamiyatga foyda keltirishni o'rgatadi.

**Kalit so'zlar:** Ajdodlar, meros, milliy qadriyatlar, avlod, mardlik, jasorat, donishmandlik, hurmat, ehtirom, sadoqat, birlik, ma'naviy yuksalish.

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается значение богатого духовного и культурного наследия, оставленного нашими предками. Отмечается необходимость того, чтобы молодое поколение продолжало их путь, воплощая такие качества, как мужество, храбрость и мудрость. Произведение учит молодежь уважать и почитать благородные дела своих предков, внося тем самым положительный вклад в общество.

**Ключевые слова:** Предки, наследие, национальные ценности, поколение, мужество, храбрость, мудрость, уважение, почтение, преданность, единство, духовное развитие.

**Annotation:** This article highlights the significance of the rich spiritual and cultural heritage left by our ancestors. It emphasizes the need for the younger generation to continue the legacy of their forebears, embodying qualities such as bravery, courage, and wisdom. The work teaches young people to honor and respect the noble deeds of their ancestors, thereby contributing positively to society.

**Keywords:** Ancestors, heritage, national values, generation, bravery, courage, wisdom, respect, reverence, devotion, unity, spiritual growth.

Har bir insonning hayotda o'z vazifalari bor: yaxshilik qilish, yaxshi nom qoldirish, o'z vataniga sodiq bo'lish, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish va boshqa juda ko'p majburiyatlari bor deya ayta olamiz. Tarixga nazar solsak, biz yashayotgan hozirgi tinch zamon ya'ni urush, boshqa ziddiyatli to'qnashuvlarda xoli shroit, osoyishta kunlar ajdodlarimizning mehnati, jasorati, aql –idroki, kuch g'ayrati, joni evaziga qurilganligan. Shunday ekan biz ham vatan ravnaqi uchun qo'ldan kelgancha yordam berib ajdodlarga munosib avlod bo'lishimiz kerak.

Qadimda To‘maris-u Shiroqdan tortib o‘z hayotini Vatani ozodligi, tinichligi ezgu maqsadi yo‘lida tikkan buyuk ajdodimiz, yurt sog‘inchida ko‘z yosh to‘kkan Bobur, So‘z mulkingning sultoni, qalami bilam xalqini birlashtirgan Hazrat Navoiy, adolat-u siyosati, kuch-g‘ayrati bilan necha asrlardan ismi tarixlarda o‘chmay kelayotgan Amir Temur bobomiz, xalqni qoloqlik ozod etish, ma‘rifat ulashish maqsadida harakat qilgan Cho‘lpon ..... Bu qatorni davom ettira bersak hali juda ko‘p yozishimiz mumkin. Xo‘sh, biz ajdodlarimizga munosib bo‘lish uchun nimalar qilyapmiz? Bu savolni boshqalarga emas, avval o‘zimizga berilishi lozim deb o‘ylayman. Hayotimizning ko‘pgina qismi non topish, yaxshi yashash va boshqalarga ko‘z-ko‘z qilish, yaxshi ko‘rinish uchun turmush kechirayotgandekmiz. Shunday emasmi?! Ba’zida esa moddiyatga, shon-shuhratga shu qadar berilib ketamizki, bobolarimizning kim ekanliklarini, qanday jasorat ko‘rsatganliklarini, vatan uchun nimalar qilganini unutib qo‘yamiz. Misol tariqasida har yili 14-fevral arafasida kichkina so‘rovnomalar o‘tkaziladi: “14-fevral qanday kun?” mazmunida. Afsuski, ko‘pgina insonlar Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludidan xabardor emasligini aytishadi, yoshlarimiz esa Yevropadan kirib kelgan, milliyligimizga zid bo‘lgan “Sevishganlar kuni”ni ko‘pbora ta’kidlashadi va har yili shu holat takrorlanadi. Bu bizning savodsizligimizmi? Nahotki, Zahiriddin Muhammad Boburdek buyuk insonni unutib qo‘yish yoki tanimaslik mumkinmi degan savol tug‘iladi. Buyuk ajdodlarimiz yuksak darajalarga qanday erishganini ularning hayot yo‘llariga bir nazar solib, ijodlaridagi hikmatlarni o‘qib, uqib va tahlil qilib anglashimiz, lozim bo‘ladi. Bunday shaxslar o‘z-o‘zidan etishib chiqmaydi, albatta. Buning uchun o‘ziga yarasha ilmiy-madaniy muhit mavjud bo‘lishi kerak. Bu vazifani eng avvalo ota-ona, oila muhitida farzandlariga buyuk ajdodlarini eslatish, ularning axloqini va ma’naviy jasoratlarini namuna qilib ko‘rstish har bir ota-onaning vazifasidir. Farzandining kelajagi uchun mas’ullik, o‘ta hushyorlikni, doimiy diqqat-e’tiborda bo‘lishni talab qiladi. Kichik xatoga yo‘l qo‘yilsa juda katta muamolarga duch kelishi mumkin. Shu sababdan ham ajdodlarga munosib bo‘lish ruhini, mas’uliyatini singdirish bugungi kundagi eng dolzarb ham eng muhim muammolardan biridir.

Mamlakatimizda yosh avlodni sog‘lom va barkamol inson etib voyaga yetkazish uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilgan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar o‘g‘il-qizlarga zamonaviy ta’lim berish haqida ko‘plab chora tadbirlar, qarorlar tasdiqlanmoqda. Davlatimiz rahbarining 2014-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Hattoki har bir yil nomlariga qo‘yiladigan nomlarda ham biz yoshlar uchun bag‘ishlanib qo‘yilgan. Joriy yil ya’ni 2024-yil “Yoshlar va biznesn qo‘llab quvatlash” yili deb e’lon qilindi. Bu bizga

qaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib yurtimiz ravnaqi uchun harak qilishimiz darkor.

“Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak...” -deb aytadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonochiv Mirziyoyev o‘z nutqida. Darhaqiqat oradan qancha asrlar, yillar o‘tmasin, ajdodlarimizning betakror va ilmiy-ma'naviy merosi, qilgan ezgu amallari tarixda mangu qoladi.

“Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik!” loyihasida turli yo‘nalishlarda tahsil olayotgan yoshlar o‘zlarining mutaxassisligidan kelib chiqqan holda turli loyhalari, turli tadbirlar, musobaqalar tashkillashtirilib kelmoqda. Jumladan o‘zim tahsil olib kelayotgan oliy o‘quv yurtida “Buyuk ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik!”, “Uch avlod uchrashuvi” kabi tadbirlar tashkillashtirilib kelmoqda. Agar biz o‘qisak izlansak, sog‘lom bo‘lsak, yurtimiz ravnaqi uchun jon jahtdan kurashsak biz ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lamiz. Va shu bilan birga bizning ajdodlarimizni qilgan ishlari haqida ham o‘rganishimiz bilishimiz darkor. Masalan A.Navoiy she’rlar dostonlar yozgan ularning yozgan dostonlarini sherlarini o‘qishimiz va ulardan hulosa chiqarishimiz kerak. Ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik!

#### **Paydalanilgan ádebiyatlar:**

1. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 270-273.
2. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 818-821.
3. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
4. Begis P., Kamalova G. M. SÓN BES JULDIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 55-59.
5. Aysawle J., Kamalova G. M. SAHRA BÚLBÚLI ROZA QUTEKEEVA //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 60-66.
6. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 880-884.
7. Segizbaeva G., Kamalova G. M. DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 875-879.

8. Niyazbaeva A. J., Kamalova G. M. CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 1. – С. 26-30.
9. Kamalova G. M. et al. QARAQALPAQTIN BAY MIYRASI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 52-54.
10. Kamalova G. M., Akhmetovna M. A. QOBIZ HÁM JIRAWSHILIQ DÁSTÚRLERIN SAQLAW //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 123-126.
11. Kamalova G., Akhmetovna M. A. THE LEGACY THAT HAS COME DOWN TO US AS “JETI ASIRIM” //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 117-122.
12. Kamalova G. M. et al. ÓZBEKSTAN XALIQ BAQSISI ĠAYRATDIN ÓTEMURATOV //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 25. – №. 1. – С. 40-42.
13. Kamalova G. M. et al. ÓZBEK MUZIKASINDA BALALAR FOLKLORI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 39. – №. 2. – С. 85-87.